



VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINI PROFILAKTIKASIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Tursunboev Sardor Ilxomjon o'g'li

Namangan viloyati Norin tuman IIB profilaktika
inspektori katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17483145>

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga etmaganlar tomonidan qasddan odam o'ldirish jinoyatining kelib chiqish sabablari, uning ijtimoiy-psixologik omillari hamda bu turdagi jinoyatlarning oldini olish (profilaktika) bo'yicha samarali chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, voyaga etmagan shaxslar ongining shakllanishida oila, maktab va jamiyatning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: voyaga etmaganlar, jinoyatchilik, qasddan odam o'ldirish, profilaktika, huquqiy tarbiya, ijtimoiy nazorat, psixologik omillar, huquqiy madaniyat.

Abstract. This article analyzes the causes of premeditated homicide by minors, its socio-psychological factors, and effective measures for the prevention of this type of crime. The role of family, school, and society in shaping the consciousness of minors is also discussed.

Keywords: minors, crime, premeditated murder, prevention, legal education, social control, psychological factors, legal culture.

Jamiyatda jinoyatchilikning barcha turlari ichida voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan og'ir jinoyatlar, xususan, qasddan odam o'ldirish holatlari alohida xavfli hisoblanadi. Bu kabi jinoyatlar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois bu masala jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlarda voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Jumladan, "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlarda profilaktik ishlarni kuchaytirish vazifasi belgilab berilgan. Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi, fuqarolar xavfsizligi va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan huquqiy davlat qurish jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan og'ir jinoyatlar jamiyat uchun ikki karra xavflidir. Birinchidan, bu holatlar inson hayotiga tajovuz qilinayotganini anglatasa, ikkinchidan, kelajak avlod va mamlakatning intellektual salohiyatini shakllantiradigan yoshlarning og'ir jinoyat yo'liga kirib qolishi bilan bog'liqdir.

Voyaga etmagan shaxs tomonidan qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilishi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Bu turdagi jinoyatlar yoshlar ongining shakllanishidagi kamchiliklar, oilaviy muhitdagi nizolar, ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar samarasizligi va jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlar zaiflashuvining aniq ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqshunos olimlar ta'kidlaganidek, voyaga etmaganlar jinoyatchiligi jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, ma'naviy muhit va huquqiy madaniyat darajasining bir

ko'zgusidir. Shu sababli, bu masalani faqat jazo choralari nuqtai nazaridan emas, balki profilaktika, ya'ni oldini olish yo'nalishida o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlarda voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, 2021 yil 29 iyundagi "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorda bu sohadagi profilaktik ishlarning samaradorligini oshirish, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash vazifalari belgilab berilgan.

Shu bilan birga, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016 yil 14 sentyabr) hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun (2014 yil 14 may)da yoshlar bilan ishlashning huquqiy va institutsional asoslari belgilangan bo'lib, bu hujjatlar jinoyatchilikning oldini olishda muhim huquqiy baza sifatida xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda jinoyatlarning oldini olishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki oila, ta'lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligiga tayanish zarur. Bu yo'nalishdagi kompleks yondashuv voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan og'ir jinoyatlarni kamaytirish va ularning qayta jinoyatga moyilligini pasaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu jihatdan, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan qasddan odam o'ldirish jinoyatini ilmiy tahlil qilish, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda profilaktikaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi jamiyatning umumiy ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy holatini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Bu toifadagi jinoyatlarning, jumladan, qasddan odam o'ldirish kabi og'ir jinoyatlarning sodir etilishi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Olimlar ta'kidlashicha, voyaga etmagan shaxs jinoyat sodir etuvchiga aylanishi ko'p hollarda tasodifiy emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy-psixologik inqiroz natijasidir.

Voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilikning eng asosiy sabablaridan biri oiladagi nazoratsizlik va tarbiya etishmasligidir. Oila shaxsning ijtimoiylashuvdagi ilk va eng muhim muhit hisoblanadi. Agar bu muhitda mehr-oqibat, o'zaro hurmat va mas'uliyatsizlik o'rnini zo'ravonlik, beparvolik yoki nazarsizlik egallasa, bola ongida salbiy xulq-atvor modellari shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan og'ir jinoyatlarning ko'pchiligi noto'liq oilada o'sgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, otasiz yoki onasiz muhitda o'sish bolaning ruhiy holatiga, jamiyatga munosabatiga, hissiyotlarini boshqarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa keyinchalik tajovuzkorlik va agressiv xatti-harakatlarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim muassasalaridagi profilaktik ishlar samaradorligi ham voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda maktab va kollejlarda huquqiy tarbiya ishlari formal ravishda tashkil etiladi, yoshlar bilan individual ish yo'q darajada olib boriladi.

Pedagog va psixologlar fikricha, yoshlar orasidagi tajovuzkorlik va zo'ravonlik holatlarini kamaytirish uchun ta'lim tizimida "huquqiy madaniyat", "empatiya va muloqot etikasi", "konfliktologiya asoslari" kabi fan va to'garaklarni joriy etish zarur. Chunki voyaga etmagan

shaxs huquq va majburiyatlar haqida etarlicha bilimga ega bo'lmasa, u jinoiy xatti-harakatlar oqibatini to'liq anglay olmaydi.

Jamiyatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, tengsizlik va kam ta'minlanganlik holatlari ham voyaga etmaganlar jinoyatchiligini kuchaytiradi. Aniq statistik ma'lumotlarga ko'ra, og'ir jinoyat sodir etgan yoshlarning katta qismi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan chiqqan. Bunday muhitda o'sgan bola ko'pincha noqonuniy yo'l bilan "adolat tiklash" yoki "o'zini himoya qilish"ga harakat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlar muhitidagi salbiy ta'sir ya'ni guruhbozlik, "strit-kultura" yoki kriminal muhit ta'siri ham jinoyatchilikning asosiy omillaridan biridir. Ba'zan voyaga etmagan shaxs og'ir jinoyatni shaxsiy qaror sifatida emas, balki tengdoshlar bosimi yoki "shuhrat qozonish" maqsadida sodir etadi.

So'nggi yillarda internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan zo'ravonlik, nafrat, jinoiy turmush tarzini ideallashtiruvchi kontent yoshlar ongiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kompyuter o'yinlari va ijtimoiy tarmoqlardagi "chellenj"lar orqali yoshlarda real zo'ravonlikka nisbatan hissiyotsizlik shakllanishi xavfli tendensiyadir.

Psixologlar bu holatni "agressiv modelni interiorizatsiya qilish" deb ataydilar, ya'ni shaxs virtual zo'ravonlikni hayotiy norma sifatida qabul qila boshlaydi. Shu sababli axborot muhitini sog'lomlashtirish, internetda axloqiy-huquqiy filtrlar joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qasddan odam o'ldirish kabi og'ir jinoyatlarning bir qismi shaxsiy adovat, haqorat, kek yoki hissiyotlarini boshqara olmaslik bilan bog'liq. Voyaga etmagan shaxslarda emotsional beqarorlik, impulsivlik va stressga chidamsizlik yuqori bo'ladi. Shu sababli ular ko'pincha konflikt holatlarda oqibatini o'ylamay, tajovuzkor qaror qabul qiladilar.

Bu holatda psixologik profilaktikaning ahamiyati katta. Maktab va mahallalarda ruhiy yordam markazlari tashkil etish, yoshlar bilan individual psixodiagnostika ishlarini olib borish, stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish voyaga etmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim omil bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan sabablardan ko'rinadiki, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan qasddan odam o'ldirish jinoyatining manbai faqat huquqiy emas, balki ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik va ma'naviy omillar bilan bog'liq. Shuning uchun bu muammoning echimi ham kompleks yondashuvni talab etadi: oilaviy tarbiyani mustahkamlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, axborot muhitini sog'lomlashtirish va yoshlar bilan psixologik ishlarni kuchaytirish orqali jinoyatchilikning bu turini kamaytirish mumkin.

Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan og'ir jinoyatlarning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

ota-onalarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish.

"yoshlar huquqiy madaniyati" fanini joriy etish, psixolog va inspektorlar faoliyatini kengaytirish.

voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha inspektorlar tomonidan xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan individual ish olib borish.

zo'ravonlik va nafratni targ'ib qiluvchi kontentni cheklash va ijobiy axborot muhitini yaratish.

nizoli vaziyatlarda yoshlarga bepul maslahat va yordam ko'rsatish tizimini kuchaytirish.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalasi davlat siyosati darajasida hal etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy rivojlangan davlatlarda bu sohada maxsus **ijtimoiy xizmatlar tizimi, pedagogik va psixologik reabilitatsiya dasturlari** keng joriy etilgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin.

Niderlandiyada voyaga etmaganlar bilan ishlashda "Restorative Justice" (tiklovchi adolat) konsepsiyasi qo'llaniladi. Bu tizimda jinoyat sodir etgan o'smirlar nisbatan faqat jazo choralari emas, balki uni jamiyatga qaytarishga qaratilgan **tarbiyaviy va ijtimoiy reabilitatsiya choralari** ham ko'riladi.

Jumladan, "Halt-program" deb ataluvchi dastur orqali yoshlar sudgacha bo'lgan bosqichda psixologik maslahat oladi, jabrlanuvchi bilan uchrashib, o'z aybini tan oladi va jamiyat foydasiga mehnat qiladi. Bu usul jinoyatni takror sodir etish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Norvegiyada voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy sheriklik va profilaktik xizmatlar tizimi muhim o'rin tutadi. Bu mamlakatda har bir maktab huzurida **"sotsial pedagoglar" va "psixolog maslahatchilari"** faoliyat yuritadi. Ular xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan muntazam ravishda individual suhbatlar o'tkazadilar, oilasi bilan hamkorlik qiladilar va ularni jinoiy muhitdan uzoqlashtirishga yordam beradilar.

Bundan tashqari, Norvegiya politsiyasida "Early Intervention" (erta aralashuv) dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, bu dastur orqali voyaga etmaganlar bilan bog'liq har qanday huquqbuzarlik holati tezda aniqlanadi va profilaktik choralar ko'riladi.

Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olishda an'anaviy qadriyatlar va jamoaviy javobgarlik tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Bu mamlakatda (Shonen-in)" deb ataluvchi maxsus tarbiyaviy muassasalar faoliyat yuritadi. U erda jinoyat sodir etgan o'smirlar nafaqat jazo muddatini o'taydi, balki **insonparvar, ma'naviy, psixologik va mehnat tarbiyasidan** o'tadilar.

Yaponiya ta'lim tizimida "maktasichi maslahatchilar" instituti mavjud bo'lib, har bir o'quv muassasasida psixolog va maslahatchi pedagoglar yoshlarning ruhiy holatini doimiy kuzatib boradilar. Shu tufayli o'smirlarda stress, depressiya va agressivlik holatlari erta aniqlanadi va o'z vaqtida bartaraf etiladi.

BMTning "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" (1989) hamda "Voyaga etmaganlar adliyasiga oid Pekin qoidolari" (1985)da yoshlar bilan ishlashda jazoga emas, balki qayta tarbiya va jamiyatga moslashtirish choralariga ustuvor ahamiyat berish lozimligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "Community-based rehabilitation" (jamoaga asoslangan reabilitatsiya) modelini joriy etish orqali yoshlar bilan profilaktik ishlar mahalliy darajada amalga oshiriladi. Bu usulda yoshlar mahalla, maktab, oila va psixologlar yordamida jinoyatdan uzoqlashtiriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, voyaga etmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishning eng samarali usuli — **jazolashdan ko'ra, qayta tarbiya va ijtimoiy integratsiyaga e'tibor qaratish**dir. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi:

"Tiklovchi adolat" elementlarini milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilish;

maktablarda psixologik xizmatni kuchaytirish va "ijtimoiy pedagog" lavozimini joriy etish;

mahalla darajasida profilaktika va reabilitatsiya markazlari tashkil etish;
yoshlar uchun bepul huquqiy va psixologik maslahat platformalarini yaratish;
“jamoaga qaytish dasturi” (Community reintegration program) asosida jinoyat sodir
etgan yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirish.

Bu yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda ham
voyaga etmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va
jamiyat xavfsizligini ta‘minlash imkoni yaratiladi.

Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan qasddan odam o‘ldirish jinoyati
ko‘pqirrali ijtimoiy-huquqiy problema bo‘lib, unga qarshi kurash bir tomonlama jazo yoki
huquqiy choralar bilan cheklanmasligi kerak. Samarali profilaktika integratsiyalangan
yondoshuv — oila, ta‘lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar
o‘rtasidagi faol hamkorlik, tezkor skrining va reabilitatsiya dasturlari orqali amalga oshirilishi
lozim. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar va monitoring tizimi sifatida samaradorlikni baholash
hamda qonunchilikni zamonaviy talablarga moslashtirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т.: “Адолат”, 2023.
- 2.Назаров Ш.Н. Профилактика правонарушений несовершеннолетних и рол органов внутренних дел. // “Журнал правовых исследований”, 2022.
- 3.Хеиде К.М. Juvenile homicide offenders: Why they were involved in serious crime. // Behavioural Sciences & the Law, 2021.
- 4.Абзалова Х.М. Разработка эффективной стратегии предупреждения убийства. // “Журнал правовых исследований”, 2022.
- 5.Турсунбай қизи Г. Причины подростковой преступности. // “Вестник ОшГУ. Право”, №2(5), 2024.
- 6.Преступность несовершеннолетних и молодёжи в Республике Узбекистан. – Тошкент: УзСмарт, 2008.
- 7.Багливио М.Т., Волфф К.Т. Prospective prediction of juvenile homicide/attempted homicide among early-onset juvenile offenders. // IJERPH, 2017.
- 8.Сошқун У.Х., Сапса А.Д. The Role of Preventive and Protective Interventions in the Struggle Against Juvenile Delinquency. // Ceza Hukuku ve Kriminoloji Dergisi, 2025..